

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA SEMANTIK MAYDON TUSHUNCHASI VA UNING O'RGANILISHI

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna,
PhD, dotsent, Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasi, BuxDU

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda semantik maydon va konsept tushunchalarining qiyosiy tahlili, ularning ingliz, rus va o'zbek tilshunoslari tomonidan o'rganilishi sinxron va diaxron aspektlarda tahlil qilingan. Semantik maydon muammosi tilshunoslikda ancha yillardan beri muammoli o'rganish obyekti sifatida qaraldi va ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan turli nazariyalar ilgari surildi. Leksik-semantik maydonning yadro va periferiyadan iborat tuzilishi turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilganligi maqolaning tahlillar qismidan o'rinn olgan.

Kalit so'zlar: Leksik ma'no, semantic maydon, konsept, yadro, periferiya, gorizontal, vertikal.

ПОНЯТИЕ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ И ЕГО ИЗУЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Абстракт. В данная статья анализируется сравнительный анализ семантического поля и понятия в современной лингвистике, судебном управлении, исследованиях российских и узбекских лингвистов, диахронические аспекты. Семантическое поле уже много лет рассматривается как проблемный объект исследования в лингвистике, и многие исследователи выдвигают различные теории. Структура лексико-семантического поля с ядром и периферией изучалась различными исследователями в реферативной части статьи.

Ключевые слова: Лексическое значение, семантическое поле, концепт, ядро, периферия, горизонталь, вертикаль.

CONCEPT OF SEMANTIC FIELD AND ITS STUDY IN MODERN LINGUISTICS

Abstract. In this article, a comparative analysis of the semantic field and concept in modern linguistics, judicial administration, research by Russian and Uzbek linguists, and diachronic aspects are analyzed. The semantic field has been considered as a problematic object of study in linguistics for many years, and many researchers have put forward different theories. The structure of the lexical-semantic field from the core and periphery was studied by various researchers from the abstract part of the article.

Key words: Lexical meaning, semantic field, concept, core, periphery, horizontal, vertical.

Kirish. Semantik maydon muammosi qiyosiy tipologiyaning muhim o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Zamonaiv filologlarning fikriga ko'ra, leksik-semantik maydon turli so'z turkumiga oid bo'lgan, turlicha ma'nolarni anglatgan umumiyligi ma'noli, sixron xususiyatlarga (semantik maydonni "o'zaro bo'luchchi" ma'nolar tizimi, giponim va giperonimlar mavjudligi), genetik-diaxron xususiyatlarga (motivatsion modellar, so'z yasalish usullarining, etimologik uyalarni hosil qilishning takrorlanishi) ega bo'lgan leksemalar majmuini ko'rsatadi. Zamonaiv tilshunoslikda insonnning tajribalari orqali so'zning umumiyligi va xususiy ma'nolari o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatuvchi "konsept" atamasi paydo bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, kognitiv lingvistikada tilga insonnning kognitiv (tushunish) funksiyasi sifatida qaraladi, ya'ni u ma'lumotlarni qabul qiladi, qayta ishlaydi va boshqalarga uzatadi.

Tilning tizimli konseptual tahlili leksik ma'nolarning yangi interpretatsiyasiga olib keladi, ya'ni umumiyligi, universal ma'noli so'zlarni ma'lum bir konsept doirasida birlashtiradi.

Konsept tuzilishi leksik-semantik maydon kabi bir xil xususiyatga ega:

1. **Yadro.** U umumiyligi kognitiv belgilarni shakllantiruvchi kognitiv qatlam yoki segmentlarni birlashtirgan asosiy qatlamdir.

2. **Periferiya.** Konseptning izohlovchi (sinonimik) maydoni.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. «Semantik maydon» atamasi lingvistik jihatdan lingvistik birliklar to'plami, umumiyligi jihat bilan birlashgan turli ajralmas birliklarni ifodalash uchun ishlataladi. Rus olimi V.A. Litvinovning [10] fikriga ko'ra, dastlab bunday leksik birliklar so'zlar hisoblangan; keyinchalik esa so'z birikmalari va iboralarni ham o'z ichiga olgan. L.M. Vasilev «Zamonaiviy lingvistik semantika» kitobida semantik maydonning asosiy xususiyatlarini quyidagicha ifodalaydi:

1. Semantik maydon til tashuvchilari uchun tushunarli va psixologik haqiqat sifatida qabul qilinadi.

2. Semantik maydon mustaqil til tizimi hisoblanadi.

3. Semantik maydon birliklari turli submaydonlar bilan semantik munosabatlarga kirishadi.
4. Har bir semantik maydon tilning boshqa semantik maydonlari bilan bog'liq holda til tizimini hosil qiladi.
5. Semantik maydon gipersemadan iborat yadro va umumiy so'zlardan iborat periferiyadan tashkil topgan. [2]

Semantik maydonni fanga kiritishga bo'lган urinishlar dastlab P. Rojer tomonidan ideografik lug'atlarni va tezariuslar yaratish orqali boshlandi.

«Semantik maydon» terminining o'zi Y.Trir va G.Ipsen asarlari nashr etilishi tufayli faollasha boshladi.

Semantik maydon birinchi marta nemis olimi Y. Trier (1931) tomonidan tasvirlangan bo'lib, u ierarxik tamoyilga muvofiq tashkil etilgan, maydon tushunchalar, ob'yeqtalar va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi haqiqat. Leybnitsdan keyin universal lug'at yaratishga intilish semantik maydonni birinchi empirik tadqiq qilishga yo'l ochdi. Shunday qilib, 1856 yilda K. Heise konseptual leksik maydonni o'rganib, unda lakunalarning til orqali leksiklashtirilganligini aniqladi.

1910 yilda R. Meyerning maqolasida birinchi marta semantik maydon tipologiyasi «ma'nolar tizimi» deb nomlandi. R. Meyer bu tizim belgilarini tabiatiga ko'ra «tabiiy», «yarim sun'iy» va «sun'iy»ga ajratadi.

Ushbu atama G. Ipsen tomonidan “umumiy ma'noga ega so'zlar to'plami» ma'nosida ishlatilgan. [7] Zamonaviy tilshunoslikda “semantik maydon” atamasi torroq lingvistik atamalar: leksik maydon, sinonimik qator, leksik-semantik maydon. Bundan tashqari, bu atamaning o'mida “terminologik sinonimlar” so'zi qo'llanilmoqda.

Semantik maydon umumiy ma'noga ega bo'lган so'zlarni unga qo'shimcha xususiy ma'no yuklash orqali birlashtiradi. Semantik maydon yadro va periferiya (sinonimik qator) kabi ma'lum bir tuzilishga ega. Semantik xususiyat kategoriya sifatida insonni o'rabi turgan haqiqat va tajriba bilan bog'liq bo'lib, tilshunos olim Yu.D. Apresyanning ta'kidlashicha, har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lган, bir biri bilan kesishgan ma'nolarga ega semantik komponentlar yoki semalardan iborat. [4]

Deyarli barcha tadqiqotchilar semantik maydon nazariyasini komponent tahlil usuli bilan bog'lashgan. Masalan, A.M. Kuznetsovning fikricha, “komponent tahlil usuli tilning leksik-semantik maydon tizimi haqida ma'lumot berishga xizmat qiladi”. [5] Rus olimi L.Vasilevning fikricha, “komponent tahlil usuli so'z ma'nosining barcha xususiy ma'nolarini o'rganish natijasida umumiy ma'nosini haqida tushunchaga ega bo'lishga yordam beradigan tilning leksik-semantik tizimini o'rganuvchi ilmiy jarayondir”. [3]

Rus olimasi E.A. Kudinova o'zining «Konsept va uning leksik-semantik maydon bilan aloqasi” maqolasida konsept va leksik-semantik maydon o'rtasidagi bog'liqlik haqida fikr yuritadi, shuningdek, unda bu ikki kategorriyaning asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi:

- 1) leksema – lug'atlarda o'chib berilgan semantik leksik shakldagi semantik ma'no;
- 2) konsept - bir xil leksik shakldagi kognitiv mazmun;
- 3) leksema - leksik semantikaning markaziy tushunchasi;
- 4) konsept - kognitiv semantikaning markaziy tushunchasi;
- 5) leksemalarni o'rganish ma'noviy o'zgarish yo'llari, boshqa leksemalar bilan ma'noviy kesishishi, leksik ma'no va semantik tasnif tarkibini tahlil qilishdan iborat;
- 6) konseptni tadqiq qilishdan maqsad mazkur tilda so'zlashuvchilarining til qobiliyatini o'rganishdan iborat.

Umuman olganda, konsept ma'lum bir leksemaning leksik-semantik maydoni yadrosi bo'lib hisoblanadi.

XX asrning 40-yillarida so'zlarni semantik maydonlarga ajratishning yangi metodi yuzaga keldi. Bu qarash Praga maktabi tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u differensial-semantik tahlil etish deb nomlandi. Bu metod asosida so'z leksik ma'nosini semema deb olinib, komponentlari sema deb qaraladi. Leksema sememalari umumlashtiruvchi, ya'ni arxisemaga ko'ra bir semantik maydonni tashkil qiladi. Bu semantik maydon maydonchalarga, ya'ni guruhlarga bo'linib, ular integral semasi asosida o'zaro birlashadi. Semantik maydonga kiruvchi har bir leksema sememasini differensial semasiga ko'ra boshqa semalardan ajralib turadi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, dastlab semantik maydonlar mantiqiy-semantik jihatdan ajratilgan bo'lsa, bu metodga ko'ra lingvistik-semantik jihatdan maydonlarni tashkil qiladi. Semantikanning keyingi taraqqiyotida Ch.Pirs, F.de Sossyur va Ch. Morrisning qarashlari alohida ahamiyatga ega. [8]

Zamonaviy tilshunoslikda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan sohani o'rganishda uslubiy yondashuvlar, leksik tarkibning tizimli aloqalarini o'rganish yo'llarini izlash semantik maydon

nazariyasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Tilshunoslikda semantik yoki tushuncha maydonini Vilgelm fon Gumboldt "tilning ichki formasi" deb nomlab, o'zining qarashlarini XX asrning boshlarida ommaga taqdim qilgan. Jahon va rus tilshunosligida F.Dornzeyf, V.Vartburg, K.N.Karaulov, V.V.Morkovkin kabi olimlarning semantik maydonning nazariy hamda amaliy asoslarini ishlab chiqqanligi e'tiborga loyiq. Rus olimi Y.N.Karaulov semantik maydonlarning mavjudlik, uzviylik, butunlik, tarixiylik kabi to'rtta muhim belgisini ko'rsatgan. Olimning fikricha, ma'lum bir arxisema (umumiya sema) asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmuiga semantik yoki tushuncha maydoni deyiladi. [7]

Natijalar va muhokamalar. Semantik maydon tushunchasi to'g'risidagi tadqiqotlar so'nggi o'n yilliklarda tilshunoslarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Tadqiqotchilarining e'tibori alohida leksemalarni tahlil qilishga, ular ichida paradigmatic munosabatlar namoyon bo'ladigan turli xususiyatlari so'z birikmalariga, ya'ni leksik-semantik guruhlar, tematik guruhlar, semantik paradigmalar va boshqalarga qaratilgan.

So'zlar alohida qo'llanilmaydi, ular doimo bir-biri bilan munosabatda bo'ladi, masalan, sintagmatikada (ketma-ketlik) so'z birikmasi va gap shaklida, paradigmaticada (uyadoshlik) esa ma'lum leksik-semantik assotsiatsiyalar shaklida qo'shilib ketadi. Tilning leksik-semantik maydonining muhim xususiyati so'zlarni semantik o'xshashligiga ko'ra guruhlash printsipi bo'lishi kerak. Bu tamoyil tilning leksik-semantik tuzilishini ta'riflash asosida so'zlar o'rtasidagi munosabatning aniq ifodasidir.

Semantik maydon (bundan keyingi o'rinnarda SM) so'zlarning katta hajmli onomasiologik va semantik guruhlanishidir. Bu bitta umumiya ma'no bilan birlashtirilgan va tilda ma'lum bir semantik maydonni ifodalovchi, vogelikning ma'lum bir sohasini qamrab oluvchi so'zlarning ierarxik tashkillashishidir. SMning markazida ob'yektlar sinfini bildiruvchi umumiya sema yoki gipersema mavjud. SM birliklari bitta kontseptual korrelyatsiya bilan tavsiflanadi.

LSM - tilshunoslikda ko'pincha qandaydir umumiya (integral) leksik-semantik xususiyat bilan birlashgan til birliklari to'plamini belgilash uchun ishlatiladigan atama, boshqacha qilib aytganda, ma'noning ba'zi bir umumiya notrivial komponentiga ega. Dastlab bunday leksik birliklarning roli so'zning lug'aviy darajasi birliklari hisoblangan, keyinchalik lingvistikada ibora va gaplarning tavsiflari paydo bo'ldi.

Rus tilshunosi I.A. Sternin SMning quyidagi qoidalarini ilgari suradi:

1. Maydon - tizimli munosabatlar bilan o'zaro bog'langan elementlarning inventarizatsiyasi.
2. Maydonni tashkil etuvchi elementlar tizimli umumiyligka ega bo'lib, tilda yagona vazifani bajaradi;
3. Maydon uyadosh elementlarni birlashtiradi;
4. SM turli tarkibiy qismlardan -mikromaydonlardan hosil bo'ladi, ularning soni kamida ikkita bo'lishi kerak;
5. Maydon gorizontal va vertikal holatga ega, vertikal holat – mikromaydonlar tuzilishi, gorizontal – mikromaydonlar munosabati;
6. Maydon yadro va periferik tarkibiy qismlardan iborat. Yadro komponent atrofida birlashtirilgan - dominant;
7. Yadroviy tarkibiy qismlar maydon funktsiyalarini bajarish uchun eng ko'p aniqlangan, tizimli ravishda qo'llaniladi, maydon funktsiyasini eng aniq bajaradi, boshqa tarkibiy qismlarga nisbatan eng ko'p uchraydi va ma'lum bir soha uchun majburiyidir;
8. Yadro va periferiya o'rtasida maydonlar tomonidan bajariladigan funktsiyalar taqsimlanadi: funktsiyalarning bir qismi yadroga, ba'zilari esa periferiyaga tushadi;
9. Yadro va periferiya orasidagi chegara mavhum va noaniq;
10. Uning tarkibiy qismlari bir sohaning yadrosiga ham, boshqa maydonning chegarasiga ham tegishli bo'lishi mumkin.[6]

Shunday qilib, maydonning haqiqiy semantik tuzilishi quyidagi qismlardan iborat:

umumiya sema yoki gipersema bilan ifodalangan maydon yadrosi.

yadro bilan umumiya integral qiymatga ega bo'lgan birliklardan iborat maydon markazi;

maydon atrofi, shu jumladan o'z ma'nosiga ko'ra yadrodan eng uzoqda bo'lgan birliklar; bunda umumiya tushuncha potentsial yoki ehtimollik semantikasi toifasiga kiritilgan. [2]

Tilshunoslikda semantik maydon muammosi qiyosiy tipologyaning ob'yekti sifatida eng muhim tadqiqotlar qatoriga kiradi. Zamona viy filologlarning fikrlariga ko'ra, leksik-semantik maydon so'zning kengaygan ma'nosida turli tushunchalarni bildiruvchi leksemalar, nutqning turli qismlaridan so'zlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, semantik maydon bir qator tizimli xususiyatlar bilan tavsiflanadi: semantik maydonni o'zaro "bo'luvchi" leksemalarning o'zaro munosabati, giponiqlarning mavjudligi

va giperonimlar va genetik-diaxronik jihatdan motivatsion modellar, takrorlash, so'z yasash shakllari, etimologik uyalarni hosil qilishning takrorlanishi, soha lug'atini yaratish. Ushbu masalani o'rganishga bag'ishlangan ishlarda hind-yevropa tillaridan olingan materiallardan foydalanilgan. Tilning leksik tizimini tadqiq qilish odatda har xil turdag'i va hajmdagi leksik guruhlarni, shuningdek, ularning bir-biri bilan munosabatlarini aniqlash shaklida amalga oshiriladi.

Xulosa. Tilshunoslikda semantik maydon nazariyasi haqidagi qarashlar so'z ma'nosining tadqiqi bilan bog'liqdir. Olamdag'i narsa, voqe'a-hodisa, harakat hammasi inson ongida tushuncha sifatida aks etadi. Tushuncha esa ma'no yaxlitligidan iborat tovush tizimida so'z shaklida namoyon bo'ladi.

Lingvistik birlklarni muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi. "Maydon" termini bir qancha fanlar doirasida qo'llaniladi, masalan, fizikada "maydon" - fazodagi taqsimlangan fizik kattaliklarning xususiyatlarini tekshiruvchi nazariya hisoblanadi; algebrada esa qo'shish, ko'paytirish va ularga teskari amallar –ayirish, bo'lish kiritilgan to'plam ma'nosini bildiradi. Bu atama lingvistikada ma'no umumiyligi bilan birlashgan hodisalarining tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o'xshashligini aks ettiruvchi leksik birliklar yig'indisi ma'nosini bildiradi. [5]

Adabiyotlar ro'yuxati:

- Апресян, Ю.Д. Лексическая семантика. - М., 1974. - С. 165.
- Власова, К. А. Лексико-семантическое поле глагола look: лексикографический аспект / К. А. Власова, М. Н. Титова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 21.1 (80.1). — С. 3-6. — URL: <https://moluch.ru/archive/80/13765/> (дата обращения: 19.10.2023).
- Васильев, Л.М. Современная лингвистическая семантика. - М., 1990. - С. 87.
- Кузнецов, А.М. Структурно-семантические параметры в лексике: на материале английского языка. - М., 1980. - С. 132.
- Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni). Filol. fan. d-ri... diss. –Toshkent, 1999.
- Стернин И.А. Лексическое значение слова в речи. – Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1985. – 170 с.
- Zoyirova N.T.Tilshunoslikda uyadosh so'zlarni semantik maydon guruhi asosida o'rganish. Central Asian academic journal of scientific research. ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2022. – P.322-325
- Xolmanova Z.T. Semantik maydon va semantik to'r imkoniyatlari. Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Vol. 1 №. 01. 2022. – B.37-43
- Шафиков, С.Г. Теория семантического поля и компонентной семантики его единиц. - Уфа, 1999. - С. 12.
- Литвинов, В.А. К вопросу о полевой структуре имени существительного // Вопросы полевого описания языка: Сборник научных трудов. - Уфа. 2003. - С.6
- Magdalena, Akhmedova Mehrinigor. A Systemic Functional Linguistic Analysis of Clauses Relationship in Luke Gospel Text, Janji Baru Using Kupang Malay. Studies in Media and Communication Journal. Vol.11, 2023. - P. 33-40.
- Fitria Nur Hasanah, Rahmania Sri Untari, Shofiyah Al Idrus, and Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Excel in Critical and Creative Thinking in Object-Oriented Programming. H. Ku et al. (Eds.): ICARSE 2022, ASSEHR 748, 2023. - P. 301–305.
- Hazim Hazim, Ratih Puspita Anggraenni, Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Altruistic Actions in COVID-19 Corpses Care: Empathy, Modeling, and More. International Conference on Advance Research in Social and Economic Science (ICARSE 2022), 2023/4/27. - P.476-484